

O‘ZBEKISTON SSR XALQ SUDLARINING SHAKLLANISHI TARIXIDAN

(XX asrning 30-yillari misolida)

Komolov Dilshod Pulatovich, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti “Tarix va ijtimoiy fanlar” kafedrası, tarix fanlari doktori (DSc), professor

FROM THE HISTORY OF THE FORMATION OF THE PEOPLE’S COURTS OF THE UZBEKISTAN SSR

(in the example of the 30s of the XX century)

Komolov Dilshod Pulatovich, Department of History and Social Sciences, University of Economics and Pedagogy, Doctor of History (DSc), Professor

ИЗ ИСТОРИИ ФОРМИРОВАНИЯ НАРОДНЫХ СУДОВ УЗБЕКИСТАНСКОЙ ССР

(на примере 30-х годов XX века)

Комолов Дилшод Пулатович, кафедра истории и социальных наук, экономико-педагогический университет, доктор исторических наук, профессор



e-mail:
dilshod.komolov.79@bk.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada XX asrning 30-yillarida O‘zbekiston SSRda xalq sudlarining faoliyati tahlil qilingan. Jumladan, sudyalarning kasbiy salohiyati, ma’lumoti, milliy tarkibi, iqtisodiy jihatdan nochor ahvoli, ish yuritish uchun yetarli sharoit bilan ta’minlanmaganligi kabi holatlar arxiv hujjatlari hamda ilmiy adabiyotlar tahlili asosida yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Adliya xalq komissarligi, Oliy sud, okrug sudi, xalq sudi, milliy tarkib, nizom.

Abstract: The article analyzes the activities of the people’s courts of the Uzbek SSR in the 1930s. In particular, based on the analysis of archival documents and scientific literature, such issues as professional potential, education, national composition, economically weak position of judges, lack of sufficient conditions for conducting work are clarified.

Key words: People’s Commissariat of Justice, Supreme Court, district court, people’s court, national composition, charter.

Аннотация: В статье анализируется деятельность народных судов Узбекской ССР в 1930-е годы. В частности, на основе анализа архивных документов и научной литературы выяснены такие вопросы, как профессиональный потенциал, образование, национальный состав, экономически слабое положение судей, отсутствие достаточных условий для ведения работы.

Ключевые слова: Наркомат юстиции, Верховный суд, окружной суд, народный суд, национальный состав, устав.

XX asrning 30-yillarida O‘zbekiston SSR ma’muriy-hududiy tuzilishi bir necha marotaba o‘zgartirildi. Shunga asosan sud tizimida ham o‘zgarishlar amalga oshirildi. Stalinning 1929-yil 7-

noyabrda bosilib chiqqan “Buyuk burilish yili” nomli maqolasida jadal jamoalashtirishni “nazariy” jihatdan asoslab berdi[1,B.347]. “Jamoalashtirish” deb nomlangan zo‘ravonlik siyosatining

ta'sirchanligini oshirish maqsadida 1930-yil 23-iyulda SSSR MIQ va XKS yangidan ma'muriy-hududiy bo'linishni amalga oshirishni ko'zda tutuvchi "Okruglarni tugatish to'g'risida"gi qarorni qabul qildi [2,C.676-678]. Qarorning 1-bandida 1930-yil 1-oktyabrgacha bo'lgan muddatda okruglarni butunlay tugatish belgilab qo'yilgan edi. Yuqoridagi qaror asosida O'zSSR MIQ 1930-yil 17-avgustda okruglarni tugatish haqida qaror qabul qildi. Okruglar tugatilgach tumanlar bevosita respublikaning bo'ysunuviga o'tkazildi. Shunday qilib, O'zbekiston 71 tumanga bo'linib, ular tarkibida 1698 ta qishloq kengashlari tashkil etildi.

1930-yil 3-dekabrda SSSR MIQ va XKS okruglar tugatilishi munosabati bilan "SSSR va ittifoqdosh respublikalarning sud tizimi asoslarini o'zgartirish to'g'risida" qaror qabul qildi [2,C.1137-1139]. Jumladan, qarorda okrug sudlari tugatilganligi sababli xalq sudlariga nisbatan yuqori instansiya Oliy sud ekanligi, xalq sudlari hukm va qarorlari yuzasidan berilgan shikoyatlar Oliy sudda kassatsiya hamda nazorat tartibida ko'rib chiqilishi ko'rsatib o'tilgan edi.

Ushbu o'zgarishlar bilan bog'liq ravishda 1931-yil 20-iyulda O'zbekiston SSR MIQ 1926-yilgi "O'zbekiston SSR sud tuzilishi to'g'risidagi Nizom"ni yangi tahrirda qabul qildi[3]. Agar 1926-yilgi nizomda O'zbekistonda xalq sudi, okrug sudi va Oliy sudan iborat uch pog'onali sud tizimi mavjud bo'lgan bo'lsa, yangi tahrirdagi nizomga asosan xalq sudi va Oliy sudan iborat ikki pog'onali sud tizimi vujudga keldi.

Nizomga muvofiq O'zbekiston SSRning har bir tumanida xalq sudi uchastkalari tashkil etildi. Xalq sudi sudyasi ikki nafar xalq maslahatchisi bilan birga ish olib borgan. Xalq sudyasi tuman yoki shahar ijroiya qo'mitasi tomonidan bir yil muddatga saylangan va Adliya xalq komissarligi tomonidan tasdiqlangan. Tumandagi xalq sudi uchastkalarining soni ham mahalliy ijroiya qo'mitasi tomonidan belgilangan.

Xalq sudida ishtirok etadigan maslahatchilarning ro'yxati mahalliy ijroiya qo'mitalari tomonidan tuziladigan maxsus komissiya tomonidan shakllantirilgan. Ro'yxat asosida 3 nafardan xalq maslahatchisi sud majlislariga chaqirilgan. Ulardan 2 nafari bevosita sud majlislarida ishtirok etsa, bir nafari zahirada turgan. Shunday tartibda har bir xalq maslahatchisi yil davomida 10 kundan sudda ishtirok etgan.

O'zbekistonda rayonlashtirishning amalga oshirilishi hali to'la shakllanib ulgurmagani sud tizimida bir qator muammolarni keltirib chiqardi: birinchidan, xalq sudlari tomonidan yo'l qo'yilgan qonunbuzilish holatlarini okrug sudlari mavjud bo'lgan davrdagidek hududning o'zidayoq bartaraf etish imkoniyatini yo'qqa chiqardi; ikkinchidan, xalq sudlariga nisbatan kassatsiya instansiya vazifasini bajargan Oliy sudda ish hajmining haddan ziyod oshib ketishiga olib keldi; uchinchidan, aloqa-kommunikatsiya tizimi hali yaxshi rivojlanmagan bir davrda respublikaning chekka tumanlarida yashagan aholining xalq sudlarining xato hukm va qarorlari yuzasidan berilgan shikoyatlarini Oliy sudda ijobiy hal etilishini kutib oylab sarson-sargardon bo'lishiga olib kelgan.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan muammolar, ayniqsa, respublikaning markazidan ancha uzoqda joylashgan janubiy hududlarda va Xorazmda yaqqol namoyon bo'ladi. Oliy sud va xalq sudlari oraliqda o'rta pog'ona sudlarini qaytadan tashkil etish hayotiy zaruriyatga aylangan edi. Dastlab, Xorazmning markazdan uzoqda joylashganini hisobga olib, 1932-yil 23-aprelda Xorazm okrugi qaytadan tashkil etildi [4,C.154]. Shu munosabat bilan 1933-yil 27-iyuldagi O'zSSR MIQ qaroriga asosan Xorazm okrug sudi ish boshladi. Keyinchalik O'zSSR MIQning 1935-yil 23-fevraldagi qaroriga asosan Qashqadaryo va Surxondaryo okruglari qaytadan tashkil etildi. Ushbu okruglarda ham okrug sudlari faoliyati tiklandi.

1935-yilga kelib, O'zSSR ma'muriy-hududiy jihatdan 3 ta okrug va 94 ta tumandan iborat edi. O'zbekiston hududida faoliyat yuritgan xalq sudlarini quyidagi 4 ta guruhga bo'lish mumkin:

- A) bevosita respublika bo'ysunuvidagi tumanlarda joylashgan 164 ta xalq sudi;
- B) Xorazm okrugi hududida joylashgan 14 ta xalq sudi;
- C) Qashqadaryo okrugi hududida joylashgan 17 ta xalq sudi;
- D) Surxondaryo okrugi hududida joylashgan 13 ta xalq sudi [5].

Respublika bo'ysunuvidagi tumanlarda ish yuritgan xalq sudlarining hukm va qarorlar yuzasidan shikoyatlar O'zSSR Oliy sudida kassatsiya tartibida ko'rib chiqilgan. Xorazm, Qashqadaryo va Surxondaryo okruglari hududida joylashgan xalq sudlariga nisbatan esa kassatsiya instansiyasi vazifasini tegishli okrug sudlari bajargan. Shunday qilib, 1935-yil O'zSSR sud

tizimida umumiy yurisdiksiya sudlari quyidagilardan iborat edi: 1) xalq sudi; 2) okrug sudi; 3) O‘zSSR Oliy sudi.

Xalq sudlarida eng jiddiy va hal etilmagan muammolardan biri kadrlar masalasi edi. Sudyalarning katta qismi sohaga oid maxsus bilim hamda kasbiy tayyorgarlik darajasiga ega emas edi. Ushbu fikrlarni arxiv hujjatlarida qayd etilgan ma’lumotlar ham tasdiqlaydi. Masalan, 1936-yil 27-iyulda O‘zSSR Adliya xalq komissari Saidali Xo‘jaev SSSR Adliya xalq komissari N.Krilenkoga xalq sudlarini taftish etish natijalari yuzasidan hisobot taqdim etgan edi. Unga ko‘ra O‘zbekiston SSRdagi xalq sudyalarining 35 foizi yetarli bilim va malakaga ega emasligi hamda muntazam ravishda qonunbuzilishlarga yo‘l qo‘yib kelayotgani bois lavozimidan ozod etilganini ma’lum qilgandi. Xususan, taftish natijasiga ko‘ra xalq sudyalarining 66 nafari qayta tayyorlash uchun o‘qishga yuborilgan, 61 nafari lavozimidan ozod etilgan, 14 nafari esa quyi lavozimga o‘tkazilgan edi [6].

1937-yilda O‘zbekiston SSRda 209 ta xalq sudi uchastkalari ro‘yxatga olingan bo‘lsa-da, ulardan 201 tasi ish yuritgan, qolgan 8 tasi esa mutaxassislar yo‘qligidan faoliyat yuritmas edi.

O‘zbekistondagi mavjud 201 ta xalq sudi sudyalarining huquqiy soha bo‘yicha bilim darajasi quyidagicha edi: 10 nafari oliy, 15 o‘rta, 74 nafari uch oylik huquqshunoslar tayyorlaydigan kursni tugatgan bo‘lib, 102 nafari esa huquq sohasi bo‘yicha biror-bir ma’lumotga ega emas edi [7].

Xalq sudi sudyalarining milliy tarkibi juda xilma-xil edi. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, sudyalar orasida o‘zbeklar katta qismni tashkil etgan. Chunonchi, 201 nafar xalq sudi sudyalarining 123 nafari o‘zbek, 32 nafari rus, 15 nafari qozoq, 10 nafari yahudiy, 9 nafari tatar, 4 nafari boshqird, 4 nafari tojik, 2 nafari turkman, 1 nafari uyg‘ur, 1 nafari chuvash millatiga mansub edi [8].

O‘zbekiston SSRning bir qator tumanlarida xalq sudlari faoliyat yuritishi uchun yetarli bino, inventar, kodeks va boshqa zarur me‘yoriy-huquqiy hujjatlar bilan ta‘minlanmagan edi. Xalq sudlari uchun ajratilgan binolarning aksariyati avariya holatida bo‘lib, ularni ta‘mirlash uchun hukumat tomonidan yetarli mablag‘ ajratilmagan edi. Masalan, Adliya xalq komissari S.Xo‘jaev 1937-yilda hukumatdan 15ta xalq sudi uchun bino qurishga byudjetdan mablag‘ ajratishni so‘ragan edi [9]. Biroq, ushbu asosli talabga hukumat mablag‘

tanqisligini asos qilib, rad javobini bergan edi. Qashqadaryoda xalq sudlari ish yuritish uchun qog‘oz juda taqchilligini, Jinoyat va Fuqarolik kodekslari yetishmasligini bayon etishgan edi [10].

Xulosa qilib aytganda, XX asrning 30-yillarida O‘zbekiston SSRda mavjud shart-sharoitlar yaxshi o‘rganilmasdan tez-tez ma‘muriy-hududiy tuzilishda o‘zgarishlarning amalga oshirilishi sud tizimida beqarorlik va anarxiyani keltirib chiqardi. Ikkinchidan, XX asrning 30-yillarida xalq sudlarida kadrlar muammosi o‘z yechimini topmadi, sudyalarining katta qismi nomutaxassisligicha qolaverdi. Uchinchidan, xalq sudyalarining bir yil muddatga mahalliy ijroiya qo‘mitalari tomonidan saylanishi va har yili almashtirilishi ularning nufuzi va obro‘sigga putur yetkazdi. Qolaversa sudyalarni davlatning markaziy idoralari emas, aksincha mahalliy ijroiya qo‘mitalari tomonidan saylanishi ushbu idoralarga qaramlikni keltirib chiqardi. To‘rtinchidan, xalq sudyalarining moliyaviy jihatdan nochorligi, zarur inventarlarga ega emasligi protsessual me‘yorlarning qo‘pol tarzda buzilishiga olib keldi. Bir so‘z bilan aytganda, xalq sudlari va tizimdagi sudyalar xalq manfaatlarining haqiqiy himoyachisiga aylana olmadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekistonning yangi tarixi. 2–kitob. O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida / Ilmiy muharrir M.Jo‘raev. – Toshkent: Sharq, 2000. 668 b.
2. Собрание законов и распоряжений Рабоче-Крестьянского Правительства СССР за 1930 г. – Москва: Издается Управлением Делами СНК СССР и СТО., 1930. -1300 с.
3. O‘zbekiston Milliy Arxivi R-904-fond, 9-ro‘yxat, 40-ish, 89-varaq.
4. Расулев А. Создание и развитие советского суда в Узбекистане. – Ташкент: Госиздат УзССР, 1957. – 188 с.
5. O‘zbekiston Milliy Arxivi R-904-fond, 9-ro‘yxat, 395-ish, 59-varaq.
6. O‘zbekiston Milliy Arxivi R-904-fond, 9-ro‘yxat, 395-ish, 92-varaq.
7. O‘zbekiston Milliy Arxivi R-904-fond, 9-ro‘yxat, 395-ish, 214-varaq.
8. O‘zbekiston Milliy Arxivi R-904-fond, 9-ro‘yxat, 395-ish, 213-varaq.
9. Qashqadaryo viloyati davlat arxivi 46-fond, 1-ro‘yxat, 30-ish, 14-varaq.
10. O‘zbekiston Milliy Arxivi R-904-fond, 9-ro‘yxat, 364-ish, 20-varaq.